

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI TA'LIM JARAYONIGA AQLIY TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Qarshiyeva Iroda Baxtiyarovna

Termiz davlat Pedagogika instituti

*Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lim) ixtisosligi magistranti*

Tel: +998994162896

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'lim jarayoniga har tamonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashda aqliy tarbiyaning o'ri haqida so'z bordi.

Kalit so'zlar: Aql, sezish, bilim, tarbiya, bolalar, maktabgacha ta'lim, tafakkur, ta'lim

Maktabgacha ta'lim uyg'un rivojlangan shaxsni tarbiyalash, bolani butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan muassasadir. Aql - keng ma'noda sezish va idrok etishdan boshlanib tafakkur va hayotni o'z ichiga oladigan bilish Jarayonlari yig'indisidir. Aqliy tarbiya bu aqlni rivojlantirish maqsadida yosh avlodga muntazam va maqsad asosida pedagogikva psixologik ta'sir ko'rsatishdir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan kattalarning ma'lum maqsad asosidagi ta'sir etishdir. U bolalarga tevarakatrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni tizimlashtirishni, bolalarda bilishga qiziqish uyg'otish, aqliy malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirishni, bilim qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli, ayniqsa, kattadir. Chunki aql his-tuyg'ular va idrok etishdan tortib, fikrlash va tasavvur etishgacha bo'lgan jarayonlar yig'indisidir. Aqliy rivojlanish fikrning kengligida voqealarni har xil bog'lanishlarda, munosabatlarda ko'ra bilish, umumiyashtirish qobiliyatida namoyon buladi [1].

Odamning aqli, uning aqliy rivojlanishi, bilimlar hajmi, xususiyati va mazmunida namoyon bo'ladi. Ular aqliy faoliyatning jo'shqinligida, mustaqil ijodiy bilishga intilishda o'z ifodasini topadi. Aqliy faoliyat diqqatning bar doir ma lum maqsadga qaratilgan bo'lishini talab etadi. Kishining aqli uning asosiy faoliyatida erishgan muvaffaqiyati xususiyati bilan belgilanadi. Aqliy tarbiyasi etuk, o'tkir zehni. zukko va zakovatli insonlarni xalqimiz donishmand kishilar deb ataydilar [].

Insoniyat paydo bo'lgandan beri odamlar orasida etishib chiqqan barcha olimu fozillar, shoiru-yozuvchilarning barchasi mukammal ilm egallash orqali o'z davrining e'tiborli kishilari darajasiga ko'tarilganlar. Abu Raybon Beruniy, Abu Nasr Forobiy,

Ibn Ali Ibn Sino, Mabmud Qoshg'ariy. Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalar, g'arb olimlaridan Y.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, J.J.Russo va boshqalar mukammal ilm egallash orqali fanning barcha sohalarida buyuk kashfiyotlar yaratganlar [1,3].

Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarga ta'lim berish g'oyasi birinchi bo'lib chet el pedagogikasida chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) tomonidan yaratilgan. U ona rahbarligida 6 yoshgacha bo'lgan bolalarga ta'lim- tarbiya berish mumkinligini ko'rsatib berdi. Shu davrda bolani yoshini e'tiborga olgan holda kishi o'rganishi lozim bulgan hamma narsaga o'rganish lozim deydi. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarga ya'ni biz ta'lim-tarbiya beradigan bolalarga har tqmonlama bilim, ko'nikma va malakalami singdirishimiz mumkin. U 19 bo'limdan iboral maktabgacha ta'lim dasturini tuzdi. YA.A.Komenskiy «Onalar maklabi» kitobida kichik bolalarni ta'lim-tarbiyasiga, o'qish metodikasiga katla e'tibor bergan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolani faol fikriash faoliyalini rivojiantirishga kattalarning ma lum maqsad bilan ta'sir etishidir. U bolalarga levarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni sistemalashtirishni, bolalarda bilishga qiziqish uyg'otishni. aqliy malaka ko'nikmalarini tarkib toptirishni, bilish qobiliyatlarini rivojiantirishni o'z ichiga oladi [4].

Bilimni tasavvurlar va tushunchalar, qoidalar, qonuniyatlar, sistemalar shaklidagi turli fanlarning mazmuni tashkil etadi. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalarda voqea va hodisalarni to'la aks ettiradigan yuksak darajadagi umumlashtirilgan bilimlar tizimini shakllantirishdan iboratdir. Bilim dunyoqarashning asosini tashkil etadi. Demak, bola tevarak-atrofdagi narsalar, ularning vazifasi sifati va xossalari (sinadi, pachoq bo'ladi, yirtiladi, to'kiladi) haqida, qaysi materialdan tayyorlanganligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'ladi. U tabiat hodisalari, ularning o'zaro bog'liqligi va qonuniyatlari (yil fasllarining o'ziga xos belgilari, ular o'rtasidagi bog'lanishlar, hayvonlar, ularning hayoti va yashash tarzining tashkil qilinishiga, xulqiga, yashash sharoitiga mosligi va h.k.) ni bilib oladilar [2,4].

Olimlar aqliy rivojlanish va aqliy tarbiyaga oid ko'ngil masalalarni tadqiq qilmoqdalarki, bu maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar aqliy tarbiyachining asosi bo'lgan sensor tarbiyaning mazmuni va metodini ishlab chiqish uchun zarurdir, bolalarning ko'rgazmali –harakatli, ko'rgazmali –obrazli va tushunchali – mantiqiy tafakkurini shakllantirish tadqiq etilmoqda, ularning bilish qobiliyatlarini shakllantirishning o'ziga xos tomonlari aniqlanmoqda. Keyingi yillarda olib borilgan psixologik –pedagogika tadqiqotlarning natijalari maktabgacha tarbiya yoshi davrida bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Bularning hammasi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalar mazmunini yanada chuqurlashtirish, hajmini kengaytirish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatadi.

Мақтабгача тарбия юшидаги болаларни ақлий тарбиялашнинг асосий вазифалари қуйдагилардан иборат:

1. Болаларда табиат ва жамият то'ғ'рисидаги билимлар системасини, илмию дунюқарашни шакллантириш.

2. Билишга доир рухий жарайонларни ривожлантириш; сезги, идрок, хотира, хайол, тафаккур, нутқ.

3. Билишга қизиқиш ва ақлий қобилиятларни, ақлий меҳнат маданиятини ривожлантириш.

4. Ақлий малака ва ко'никмаларни ривожлантириш.

Хулоса қилиб айтганда, мақтабгача тарбия юшидаги болаларни ақлий тарбиялашда болаларга теvarак – аtrofdаги олам хақида билимлар беришни, уларни системалаштиришни, болаларда билишга қизиқиш уыг'отишни, ақлий малака ва ко'нимкларни таркиб топтиришни, билиш қобилиятларини ривожлантиришни о'з ичига олади.

Фойдаланилган адабияотлар

1. А. Минавваров. Педагогика. — Т., «О'қитувчи». 1996
2. G.I. Xasanova. Bolaga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishda tarbiyachining kasbiy kompetentsiyasining ahamiyati. "Academic research in educational sciences" (2021). 1051-1056
3. M. K. Raxmanova Ta'lim texnologiyalari orqali kasb tanlashda ongli munosabatni shakllantirish. Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya, (2019). 323-326
4. M. Q. Raxmanova, U. A. Ismadiyarova. Maqtabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maqtabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli. "Academic research in educational sciences" VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2021. 514-522 b